

VOLUME - 4 ISSUE - 1

FEBRUARY 2022




4



# PEDAGOGS

international research journal



Google Scholar



03/03/2022 13:31

PEDAGOGS *international research journal*



**PEDAGOGLAR.UZ**

*Scientific Research Center*

# PEDAGOGS

*legal, medical, social, scientific journal*

**IN ALL AREAS**

**Volume-4, Issue-1, February-2022**



**I<sup>C</sup>I JOURNALS**  
03/03/2022 13:31

## TAHRIRIYAT | EDITORIAL

### Editor in chief

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

### Executive Secretary

Abdurahmonov Boburjon

*He is mathematic teacher at*

*Uzbekistan District 49 Secondary School*

### Preparing for publishing

Xoliqov Toxirjon Shavkatjon ugli

### Bosh muharrir

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

### Mas'ul kotib

Abdurahmonov Boburjon

*O'zbekiston tumani 49-umumiy o'rta*

*ta'lim maktabi matematika fani o'qituvchisi*

### Nashrga tayyorlovchi

Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li

## TAHRIRIYAT KENGASH A'ZOLARI | EDITORIAL BOARD MEMBERS

*Inobatxot Mirzaraximova*

*Rishton tuman XTB mudiri*

*Umida Barzieva*

*Farg'ona viloyat xalq ta'limi boshqarma metodisti*

*O'rinov Ahmadjon Qo'shaqovich*

*Farg'ona Davlat Universiteti, Matematika fanlari doktori, professor*

*Toshboltayev Muhammadjon*

*Toshkent mashinasozlik institute, Texnika fanlari doktori, Professor*

*Qodirov Nabijon O'lmasovich*

*O'zbekiston xalq ustasi, (usta kulol)*

*Turdiyev Azizbek Anvarovich*

*O'zbekiston madaniyat va san'at vazirligi, journalist*

*Ne'madaliyev A'zam Muhammadjonovich*

*Cyberlayn firmasi asoschisi, iqtisod fanlari nomzodi, PhD*

*Mohinur Saidova*

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Sharifaxon Xakimova*

*Farg'ona tumani 4-maktab matematika fani o'qituvchisi*

## TAHRIRIYAT MANZILI | EDITORIAL ADDRESS

**UZB: 712000. Farg'ona viloyati, Rishton shahri, Istirohat bog'i ko'chasi 24-uy**

**[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz), E-mail: [info@pedagoglar.uz](mailto:info@pedagoglar.uz) Tel: +998 90 905-14-30**

**ENG: 712000. Fergana region, Rishtan city, Park park street 24**

**[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz), E-mail: [info@pedagoglar.uz](mailto:info@pedagoglar.uz) Tel: +998 90 905-14-30**

## MUNDARIJA

№	Maqolalar nomi	Sahifa
1	MOYLI YERYONG'OQ EKINI ZARARKUNANDALARI ZARARI VA ULARDAN HIMOYA QILISH	4
2	INSEKTITSIDLARNING SOYA O'SIMLIGI ZARARKUNANDALARIGA TA'SIRI	8
3	GLOBALLASHUV JARAYONIDA MILLIY XUSUSIYATLARNI SAQLAB QOLISH MUAMMOLARI	13
4	ARTEPIYA TA'RIFI, ASOSIY YO'NALISHLARI VA TURLARI	18
5	DALVARZINTEPA YODGORLIGI	26
6	TIL TA'LIMIDA LISONIY MALAKALAR VA FANLARARO INTEGRATSIYA MASALASI	30
7	FUQAROLARINING PSIXOLOGIK BILIMLARINI OSHIRISHDA INDIVIDUAL YONDASHUVLAR	34
8	TABIAT HAM ONA, HAM VATAN - U HAM MEHRGA MUHTOJ!	40
9	"TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI" MAVZUSINI O'QITISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	42
10	INTRODUCTION OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE MANAGEMENT SYSTEM OF NON-GOVERNMENTAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	61
11	"YANGI O'ZBEKISTON MA'RIFATLI JAMIYATINI YARATISHIDA YOSHLARNING O'RNINI"	67
12	DARS MASHG'ULOTLARIDA REFLEKSIY METODLARDAN FOYDALANISH	74
13	UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA KIMYO FANINI O'QITISHDA "KIM QAYERDA XATO QILDI" METODINI QO'LLASH	81
14	ЎҚУВЧИЛАРДА ИЖОДКОРЛИК, ИЗЛАНИШ ОРКАЛИ ИЖОДИЙ ИШЛАРНИ ЯРАТА ОЛИШ ҚОБИЛИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ	85
15	SILENCE WILL NOT BE RIGHT	91
16	XALQARO EGRA VA EGMA TADQIQOTINI O'ZBEKISTON BO'YICHA BOSHLANG'ICH SINFLARDA AMALDA QO'LLASH USULLARI	96
17	O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHDA DARSDAN KEYINGI MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI	100
18	THE EDUCATIONAL VALUE AND PLACE OF FICTION IN LITERATURE LESSONS	104
19	TALABALARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASHDA IJTIMOİY INSTITUTLAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH (YOSHLAR ITTIFOQI BOSHLANG'ICH TASHKILOTI MISOLIDA)	109
20	BUG'DOY O'SIMLIGINI ZARARLI ORGANIZIMLARDAN HIMOYA QILISHDA BIOLOGIK SAMARADORLIK KO'RSATKCHI	117
21	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МОДУЛЬНОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ДИСЦИПЛИНЕ «ХИМИЯ И МЕТОДИКА ЕЁ ПРЕПОДАВАНИЯ»	121

22	KREDIT MODUL TALIM TIZIMIDA TALABALARGA EKSPERIMENTAL TAJRIBALAR ORQALI KIMYOVIY TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISH METODLARI	128
23	QUR'ONDAGI QISSALARDA MUSO ALAYHISSALOMNING O'RNI	139
24	HUMAN RIGHTS	143
25	NEMIS TILIGA O'ZLASHGAN SO'ZLARNING IMLOSI	147
26	"FARHOD VA SHIRIN" DOSTONING XAMSADA TUTGAN O'RNI	151
27	СОВРЕМЕННЫЕ ДАННЫЕ О МОРФО-ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ АСПЕКТОВ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ОРГАНИЗМА ПРИ ЗЛОУПОТРЕБЛЕНИЕ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ НАПИТКАМИ	154
28	МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ДАННЫЕ О ФУНКЦИОНИРОВАНИИ ИММУННОЙ СИСТЕМЫ ЖЕЛУДОЧНО-КИШЕЧНОГО ТРАКТА	162
29	O'RTA UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH	174
30	INSON ORGANIZMIDA ELEMENTLARNING ROLI	183
31	AHBOROT TEXNOLOGIYASINING PAYDO BO'LISHI	187
32	YUSUF XOS HOJIBNING "QUTADG'U BILIG" ASARINING O'RGANILISHI BO'YICHA QO'SHIMCHA MA'LUMOTLAR	190
33	TEZIS QANDAY YOZILADI?	196
34	O'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAGRIKENGLIK MASALALARI UMUMINSONIY QADRIYAT SIFATIDA	199
35	OLIV TA'LIM TIZIMINI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH VA SIFAT DARAJASINI OSHIRISHDA INNOVATSION LOYIHALARNING TADBIQ ETILISHI	205
36	PIRLS - MATNNI O'QISH VA TUSHUNISH DARAJASINI BAHOLASH	209
37	MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TASHKIL ETILADIGAN TA'LIM - TARBIYA JARAYONLARI	213
38	INTERFAOL METODLARNING TARIX FANINI O'QITISHDA QO'LLANILISHI	217
39	АРТ-ТЕРАПЕВТИЧЕСКИЕ ЗАНЯТИЯ С ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА	227
40	NAVOIYNING "JAHON QASRIG' ADUR SU UZRA BUNYOD" MISRASI BILAN BOSHLANUVCHI TARJIBANDIDA MATNIY TAFOVUTLAR VA TAHRIR MASALASI	233
41	BOSHLANG'ICH TA'LIM KITOVXONLARIDA O'QISH MADANIYATINI TARBIYALASHNING MAQSAD VA VAZIFALARI	238
42	БУХОРО ЯХУДИЙЛАРИ ВА ШАШМАҚОМ	243
43	ЖАМИЯТ ИЖТИМОЙИ-СИЁСИЙ БАҲҚАРОРЛИГИНИ МУСТАҲҚАМЛАШНИНГ МАВҚУРАВИЙ ОМИЛЛАРИ	248
44	ISLOM HUQUQSHUNOSLIGIDA SHAR'IY HUKUMLARNING UMUMIY TAVSIFINI IFODA QILADIGAN TERMINLARNING LEKSIK-MORFOLOGIK TADQIQI	254
45	KIMYO FANINI O'RGANISHDA MUSTAQIL TA'LIMNI O'RNI VA NATIJALARI	264

## NEMIS TILIGA O'ZLASHGAN SO'ZLARNING IMLOSI

*Berdimurodov Adham Musurmonovich*

*Qarshi davlat universiteti Nemis tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi*

**Annontatsiya:** G'arbiy Yevropa tillaridan biri hisoblangan nemis tili ham yillar davomida qo'shni davlatlarning tillari, jumladan, qadimgi lotin tili, shuningdek italyan, fransuz, ispan, rus, ingliz tillaridan olingan so'z va iboralar asosida o'z lug'at boyligini boyitgan. Nemis tilining ilk shakllanish davrida lotin tilining lug'at boyligi yetakchilik qilgan bo'lsa, 9-13 asrlarda fransuz va ispan tillaridan, Yevropadagi uyg'onish davrida italyan tilidan, Ikkinchi jahon urushi natijasida rus tilidan, fan-texnika jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda esa ingliz tilidan o'zlashgan so'z va iboralar nemis tilining lug'at tarkibidan muqum o'rin egallaganligi e'tiborga molikdir.

**Kalit so'z:** Job, jobben, Computer, Lyzeum, College, Chef, Charakter  
Ammo bir tildan ikkinchi bir tilga o'zlashgan so'zlarning grammatik belgilari, tovush tizimi hamda imloviy ko'rinishi ayrim qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, nemis tiliga boshqa tillar asosida o'zlashgan ot so'z turkumiga mansub quyidagi so'zlardan fe'llar hosil qilish mumkin:  
jobben - nemis so'zlashuv tilida "ishlamoq" ma'nosida;  
joggen - "gimnastika bilan shug'ullanmoq", "yugurmoq" ma'nolarida.

Vaholanki, ingliz tilidagi "Job" so'zi hamda kelib chiqishi Sharqiy Osiyo hududiga tegishli bo'lgan "Joga" atamasi faqat ot so'z turkumidagina qo'llanila oladi.

Yoki, nemis tiliga o'zlashgan "Lyzeum, College, Chef, Charakter" kabi so'zlardagi ba'zi bir harflarning tovush xususiyatiga alohida ahamiyat berish talab etiladi. Zero, nemischa so'zlarda "eu" diftongining talaffuzi "oy" deb, "g" va "ch" undoshining o'qilishi esa qoidaga ko'ra |g|, |e|, |x| tarzida talaffuz etiladi. Shu sabab,

nemis tilini o'rganayotgan talabalarga bunday so'zlarni qaysi tillardan nemis tiliga o'zlashganligini va qanday talaffuz qilinishini alohida uqitirib o'tish talab etiladi.

Shuningdek, nemis tilida chop etilayotgan darslik va adabiyotlarda o'zlashgan ba'zi bir so'zlarning ikki xil shaklda yozilishini ham talabalarda tushunmovchilik keltirib chiqarishi mumkin deb hisoblaymiz. Jumladan, "kompyuter, kreativ" kabi so'zlar hozirgi nemis tilida imloviy ko'rinishi bo'yicha ikki xil shaklda ifoda etilmoqda: "Komputer - Computer", "kreativ - creativ".

Olinma so'zlarning qo'llanilishi borasidagi fikrimizning isboti sifatida biz o'rta maktabning yuqori sinf o'quvchilari hamda akademik litsey va kollej o'quvchilari uchun mo'ljallangan darsliklarda ifoda etilgan olinma so'zlar va ularning imlosi borasida to'xtalib o'tamiz.

Sh.S.Imyaminova, S.Ya.Abdullayeva, L.T.Xoliyorovlar tomonidan yaratilgan "Deutsch" darsliklarida 100 ga yaqin o'zlashma so'zlar qo'llanilgan. Ammo bu so'zlarning nemis tilida ifoda etishda mualliflar tomonidan ba'zi bir imloviy xatoliklarga ham yo'l qo'yilganligini ta'kidlab o'tishimiz zarur. Jumladan, o'rta maktablarning 10-sinflari uchun mo'ljallangan darslikda quyidagicha kamchiliklar uchraydi:

Darslikning 40-betida "DJ" qisqartmasining transkripsiyasi berilmagan. 62-betda ifodalangan "joggen" so'zining nemischa ma'nosi berilmagan. 73-betda "E-learning" atamasi bilan bir qatorda bu so'zdan hosil qilingan nemischa so'zlar – "E-Lernen", "E-Lerner" so'zlari izohsiz ifoda etilgan. 83-betda ingliz tilidan nemis tiliga kirib kelgan "party" so'zi izohsiz tarzda ikkita gapda ishlatilgan. 93-betda ifoda etilgan "Feed-Back" so'zining nemischa muqobilini topish topshirig'i ham, bizningcha, o'quvchilarga qiyinchilik keltiradi. Darslikning 110-betida inglizcha "Non-Profit-Organisation" (notijorat tashkiloti) ifodasi nemis tiliga "Die nichtstaatliche und nichtkommerzielle Organisationen" (nodavlat va notijorat tashkilotlari) shaklida ham mantiqan, ham grammatik jihatdan noto'g'ri talqin etilgan. 131-betda esa "Info-point" ifodasi qo'shtirnoq ichiga olinmagan. 138-betda

“CV” qisqartmasining, shuningdek, 170-betda “Science-Fiction” qo’shma so’zining izohi va transkripsiyasi berilmagan.

Yuqoridagi mualliflarning 11-sinf o’quvchilariga mo’ljallab yaratgan darsligida quyidagi kamchiliklarni ko’rish mumkin:

Darslikning 29-betida ingliz tilidan olingan “recycling” so’zi asosida nemischa qo’shma so’z yasalgan: Recyclingssysteme, biroq bu o’rinda “recycling” so’zining o’qilishi va anglatgan ma’nosi qayd etilmagan. 50-betda “joggen” (gimnastika bilan shug’ullanmoq) o’zlashma so’zi nemischa “Laufen” (yugurmoq) so’ziga ma’nodosh sifatida berilgan. 91-betda Roksana ismli qizning xatida ifoda etilgan “Azubis” so’zining ma’nosi o’quvchilarga tushunarli emas. Darslikda “sartarosh” ma’nosini anglatuvchi o’zlashma so’z ikki xil shaklda 98-betda “Frisur”, 100-betda esa “Friseur” shaklida berilgan.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning o’quvchilariga mo’ljallab yozilgan va mualliflari S.Ya.Abdullayeva, L.T.Holiyarov, S.A.Ziyayeva, Sh.A.Hojiyevalar bo’lgan darsliklarda ham nemis tiliga o’zlashgan so’zlarning talaffuzi va imlosi bo’yicha bir qator kamchiliklar ko’zga tashlanadi. Quyida “Deutsch 1/2 Zum Ziel” darsliklarida o’zlashma so’zlar bo’yicha yo’l qo’yilgan kamchiliklarni e’tirof etamiz:

“Deutsch 1. Zum Ziel” darsligida “Chef” (17-bet), “Job” (18-bet), “Feed-Back” (32-bet), “E-Learning” (43-bet), “Chance” (45-bet) kabi so’zlarning transkripsiyasi ko’rsatilmagan. Bu narsa esa bunday o’zlashma so’zlarning to’g’ri talaffuz qilinishida qiyinchiliklarni keltirib chiqradi. 78-betdagi “Heiss oder Nicht?” nomli matnda ifodalangan “die Studenten – ID-Images”, Website von Facemash” kabi birikmalar o’quvchilarga biroz tushunarsizdir. Shuningdek, 134-betda “qisqacha xulosa” ma’nosini anglatuvchi “Resume” so’zi “Resümee” shaklida ishlatilgan, nemischa “bequem” (qulay) so’zi o’rinda esa “komfortabel” o’zlashma so’zi qo’llanilgan. Darslikdagi 12-Lektionga tegishli 1-darsda “Evaluation” olinma so’zi imlo xatosi bilan sarlavhaga chiqarilgan. Aynan shu so’z darslikka ilova qilingan “Glossar” da “Evaluation” ko’rinishida berilgan. Bundan tashqari 151-betdan o’rin




olgan “Mein Plan/Mein Ziel” matnida qoʻllanilgan “ins Visier” birikmasi nafaqat oʻquvchilarga, balki oʻqituvchilarga ham tushunarli emas.

“Deutsch 2. Zum Ziel” darsligida oʻzlashma soʻz va birikmalarning imlosi boʻyicha nisbatan kam xato kuzatiladi. Jumladan, darslikning 17-betidagi “I-Phone, Evernote” kabi olinma soʻzlar qoʻshtirnoq ichiga olinmagan. Shuningdek, darslikning 3-Lektioniga sarlavha sifatida chiqarilgan “Recherche” soʻzining va bu soʻzdan hosil qilingan “recherchieren” feʻlining (24-bet) transkripsiyasiz berilishi ham talabalarga bu soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilishda qiyinchilik tugʻdiradi, deb oʻylaymiz. Oʻz navbatida darslikda berilgan matnlarning birida “Proffi” (65-bet) qisqartma soʻzi oʻrnida “Professional” olinmasi yoki “Master” soʻzi qoʻllanilganda oʻquvchilarga bu soʻzning maʼnosi yanada tushunarli boʻlardi.

Xulosa sifatida shunga alohida ahamiyat berishimiz kerakki, oʻzlashgan soʻz va iboralardan maʼlum bir tilda toʻgʻri foydalanish uchun, eng avvalo, bu ifodalarning lugʻaviy maʼnosini bilgan holda ulardan samarali foydalanish talab etiladi. Shuningdek, olinma soʻzlarning talaffuzi va imlosida xato boʻlmasligini taʼminlash uchun, bizningcha, ular tegishli transkripsiyalari bilan, shakli oʻzgarmagan koʻrinishda ifodalanishi kerak boʻladi.

#### Adabiyotlar:

1. Мюллер В.К. Англо-русский словарь. – Москва:Русский язык, 1985 – 864 с.
2. Abdullayeva S.Ya.,.Holiyarov L.T.,Ziyayeva S.A, Hojiyeva Sh.A. Deutsch 1. Zum Ziel. – Toshkent: Davr, 2014. – 168 b.
3. Abdullayeva S.Ya.,.Holiyarov L.T.,Ziyayeva S.A, Hojiyeva Sh.A. Deutsch 2. Zum Ziel. – Toshkent: Davr, 2015. – 104 b.



# CERTIFICATE



“NEMIS TILIGA O‘ZLASHGAN SO‘ZLARNING IMLOSI”

**BERDIMURODOV ADHAM MUSURMONOVICH**

*“Pedagogs” is awarded by the editorial board of the international electronic journal*

Editor-in-Chief: **A.B.Vahobov**



**22.02.2022**

Date of issue:



03/03/2022 13:34